



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TEXNOLOGIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Yo‘ldasheva Naimaxon Ubaydullo qizi

Qo‘qon davlat niversiteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi

2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich s_nf o‘quvch_lar_n_ng mehnatga bo‘lgan layoqatini oshirish va ularda ijobiyl munosabatlarn_shakllantirish haqida bayon etilgan. Boshlang‘ich sinflarda mehnat darslarining o‘tilishi, uning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: qonun, DTS, mehnat, tabiiy material, turli material, metod, aplekatsiya, plastilik, andoza, mozaika.

Аннотация: В данной статье рассказывается о повышении трудоспособности учащихся младших классов и формировании у них позитивных взаимоотношений. В начальных классах говорили о прохождении уроков труда и его важности.

Ключевые слова: закон, ДТС, работа, природный материал, разный материал, метод, применение, пластичность, шаблон, мозаика.

Abstract: In this article, it is described about increasing the ability of elementary school students to work and forming positive relationships in them. In primary classes, they talked about the passing of labor lessons and its importance.

Key words: law, DTS, work, natural material, different material, method, application, plasticity, template, mosaic.



KIRISH

Mehnat tarbiyasiga nisbatan yangicha yondashish o‘quvchilar tamonidan egallangan bilimlarni amoliyatda qo’llay olishlarini ta’minlashga olib keladi. Bugungi kunda mehnat tarbiyasining tarkibiy tuzilmasi ham o‘zgarmoqda, u o‘zida texnika va texnologiyalarni tushunish (tasavvur qilish), amaliy vazifalarini hal etish ko‘nikmasi hamda holatlarini ifoda etadi.

Mehnat tarbiyasini samarali tashkil etishda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur tadbirlar shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham foydali bo‘lib, shaxsni yo‘naltiruvchi xususiyatga egadir.

Texnologiya darslarining ta’limiy va tarbiyaviy maqsadi o‘quv ishlarida mehnatga nisbatan ongli munosbatni shakllantirishdan iboratdir.

Mazkur maqsadni amalga oshirishda bir qator vazifalarini hal etish talab qilinadi. Mehnat tarbiyasining tashkil etishda hal etuvchi vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib, u o‘quvchilarning mehnat faoliyatiga amaliy va axloqiy tayorgarlikning barcha tomonlarini qamrab oladi. Texnologiya darslarida mehnat ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda quydagi vazifalar amalga oshiriladi;

- Inson mehnati hamda mehnat maxsuli bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlarini qadirlash, asrab-avaylashga o‘rgatish;
- Mehnat qilishga nisbatan rag‘bati, shuningdek, muhabbatni uyg‘otish;
- O‘quvchilarning mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish;
- Mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish;
- Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;
- Mehnatga xoyotiy zarurat, inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo‘lish;



- Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko‘nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish;
- O‘quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o‘z mehnati samarasidan g‘ururlanish tuyg‘usini shakllantirish;
- Muayyan ijodkorlik-hunar sirlarini o‘zlashtirishga erishish va hokozolar.

Metodlar. Yosh avlodning mehnat faoliyati quydagi yo‘nalishlarida rivojlantiriladi va tarkib toptiriladi: mehnat o‘yindan ajralgan holda musaqil faoliyat sifatida shakllantiriladi; mehnat faoliyati jarayonining mohiyatini o‘zlashtirilishiga erishiladi; mehnat faoliyatining turli shakllari vujudga keltiriladi.¹

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida har tomonlama rivojlangan, fan-texnika taraqqiyotini hayotga tatbiq eta oladigan yetuk, malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi. Maktab ta’limining hozirgi bosqichida o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash o‘sib kelayotgan avlodning ta’lim va tarbiyasidagi eng zarur vazifalardan biri hisoblanadi, chunki mehnat har qanday rivojlanish va taraqqiyot jarayonining asosidir. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariiga asoslangan qo‘l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta’limi jarayoni o‘quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, axloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan. Natijada, ularni mehnatga tayyorlashning keyingi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qilinadi. Mehnatning, nafaqat bola tarbiyasida, balki har qanday odamning komil inson bo‘lib yetishishida ahamiyati naqadar ulkan ekanligi hammamizga ma’lum. Shuning uchun bo‘lsa kerak, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham mehnat to‘g‘risida alohida moddalar qabul qilingan. Masalan, “Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash... (37-modda), yollanib

¹ Mavlonova R. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotidagi mehnat tarbiyasi” T. O‘qituvchi 1999-y.



ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar... (38-modda), Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’midot olish huquqiga ega... (39-modda)” kabi huquqiy me’yorlarni misol qilib aytib o‘tish mumkin.

Xuddi shunday mehnatga, aynan olganda, mehnat ta’limiga e’tibor xalq ta’limida ham qaratilgan. Shu jumladan, boshlang‘ich ta’limda ham har bir sinfda haftada bir soatdan mehnat ta’limi mashg‘ulotlari tashkil etilishi belgilab berilgan. Boshlang‘ich sinflarda o‘tkaziladigan mehnat ta’limining maqsadi “o‘quvchilarning barkamol shaxs bo‘lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasblar asoslarini (texnologiyasini) o‘rgatish, ularni kasb tanlash bilan uyg‘unlashtirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarligiga zamin yaratishdan iborat” dir. Mehnat ta’limining tarbiyaviy maqsadi ham kattadir, ya’ni “o‘quvchilarning mehnat ko‘nikmalarini egallashlari jarayonida mehnat va kasbga munosabatlarida yuqori axloqiy sifatlarni, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va tadbirkorlikni shakllantirish” lozim. Mehnat ta’limining hozirgi davrdagi, qolaversa, mehnat ta’limi o‘qituvchilarining vazifalari ham, bu vazifalarning talab darajasida bajarilishiga ham yosh avlodning barkamol inson bo‘lib yetishishlarida muhim o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan mehnat ta’limi fani o‘quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, kasblar bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, mehnatni qadrlash, mehnatga qiziqtirish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini 5-sinf uchun uzviy bog‘lanish zaminini yaratishni ko‘zda tutadi. Bular ta’limiy va tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi yo‘nalishlar hisoblanadi. O‘qituvchi mehnat ta’limi mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy-estetik tarbiya va ta’lim berish orqali ularning barkamol shaxslar bo‘lib yetishishlariga yordam berishi darkor. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirishga qo‘yilgan davlat



talablarida kursni bitirgan o‘qituvchi mehnat ta’limi fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni ham “talab darajasida o‘tish mahoratiga ega bo‘lishi” aytib o‘tilgan. Ana shu talabdan xulosa chiqarib, har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi (mehnat ta’limi fanini o‘qitmasa ham) mehnat ta’limi bo‘yicha barcha me’yoriy-uslubiy hujjatlarni, davlat ta’lim standarti va dastur talablarini, mashg‘ulotlar o‘tish shart-sharoitlarini, metodikasini chuqur bilishi lozim bo‘ladi. Shu bilan birga, (sinf rahbari sifatida ham) o‘quvchlarning mehnat ta’limi dasturida belgilangan bilim, ko‘nikmalarini davlat ta’lim standartlariga binoan o‘zlashtirish holatini dastlabki, oraliq va yakuniy nazorat qilib borishlari kerak. Mehnat ta’limi “Inson va jamiyat” sohasiga kiradi. Bu sohada jami beshta fan mavjud. Davlat ta’lim standarti beshta fan bo‘yicha umumiy holda bir bo‘limda keltirilgan. Bular orasidan mehnat ta’limi bo‘yicha qo‘yilgan talablarni aniqlab olish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI BA TADQIQOT

METDOLOGIYASI

Atoqli pedagog Abdulla Avloniy Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mehnatga tayyorlash haqida shunday degan edilar:”Barcha quvonchlarning manbayi Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mehnatga o‘rgatishdir!” Abdulla Avloniyning bu iborasi ostida chuqur ma’no yotadi. Binobarin Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yoshlikdan boshlab turli narsa buyumlar har xil o‘yinchoqlar yasash orqali mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilmog‘i lozim. O‘quvchilarni boshlang‘ich sinfdan boshlab mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yoshlikdan boshlab politexnik mehnatga tayyorlash, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashning yagona tizimi quyidagilardan iborat.

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida turli narsa va o‘yinchoqlar yasash, masalan hosil qilish, ularning o‘zlari tayyorlagan sovg‘a va o‘yinchoqlar orqali o‘zgalar mehnatini qadrlash malakalarini hosil qilish;



2. Boshlanayotgan ishni uddalay olish, narsa va o‘yinchoqlar tayyorlash madaniyatini egallash, o‘z ishini va o‘yinchoqlar ishini rejalashtirishi hamda bajara olish;

3. O‘quvchini o‘yinchoqlar tayyorlash orqali axloqli, did-farosatli va bilimli qilib tarbiyalash, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini mehnat darslarining oldiga qo‘yilgan bu talablar oilaviy mehnat tarbiyasi bilan uzviy bog‘liqdir.²

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini turli o‘yinchoqlar yasashga o‘rgatish jarayoni oilada tarbiyaviy ishning o‘ziga xos muhim tamoyilga e’tibor qaratishni talab qiladi. Takror va takror aytayotganimiz ota-onaning oilaviy vazifalaridan biri Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ijodkor his-tuyg‘ular uyg‘otishdan iborat bo‘lmog‘i zarur. Ana shu jarayonga alohida ahamiyat bo‘lsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnatga, mehnat madaniyatiga nisbatan ko‘nikmalari bo‘ladi. Mehnat tarbiyasi jarayon bo‘lib, u bolaning o‘qishga borguncha oilada, bog‘chada hosil qilinadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ongli qadamni dastlab, oilada hamda mehnat qilishga to‘la ishonch tuyg‘usini, o‘qishga borguncha bog‘chadan oladi.

Mehnat inson hayotining asosi. Shu bunyodkorlik ishlari barcha moddiy va ma’naviy ishlar ular ongiga singdirilishi kerak. Ota-onalarning mehnat tarbiyasiga bo‘lgan munosabatlariga kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. “Qush inida ko‘rganini qiladi” deganlaridek oildagi kattalarning mehnati kichiklarga ibrat,namunaga aylanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mehnat ta’limi jarayonida o‘yinchoqlar tayyorlashga oid tarbiya va qiziqish quyidagi qoidalar orqali sanaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma’lumki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘rtasidagi mehnat ta’limida estafeta usulidagi darsni tashkil etish va o‘tkazish ishlari “Tabiiy materiallardan loy bilan ishlash” mavzusi misolida amalga oshiriladi. O‘quvchi mashg‘ulotning nazariy

² Antonov A.F. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mehnat ta’limini boshqarish” T., 1993-y.



qismini o'tab bo'lgandan so'ng o'quvchilarni to'rt-besh kishilik guruhlarga bo'ladi. Har bir guruhga bittadan ish joyi ajratiladi. Guruh a'zolarining ish navbati qura tashlash yo'li bilan aniqlanadi. O'quvchi bajargan ish uchun ajratilgan ballarni e'lon qiladi. Shuning uchun o'quvchilar namoyish qilishi kerak bo'lgan ishning texnologik xarita asosida amaliy ish bajarish tartibini yana bir o'rganib chiqadilar. Ma'lumki loydan ko'zacha tayyorlash yo'llari uch bosqichda amalga oshirishni bosqichma-bosqich namoyish qilish rejalashtirilgan.

1-4-sinflardagi mehnat ta'limining asosiy maqsadi, vazifasi hamda xususiyati shundan iboratki, boshlang'ich sinf o'quvchilari fan yuzasidan faqat nazariy bilim olib qolmasdan, balki darsda olgan nazariy bilimlariga asoslanib, amaliy mashg'ulotlarda kuzatish tajriba ishlarida qo'l mehnatidan rangli qog'oz va kartonlardan har xil o'yinchoqlar, narsa va buyumlar, maket, modellar ko'rinishlarini tayyorlaydilar. Mahalliy tabiiy materiallardan daraxt novdalari, po'kaklar, barg va urug'lardan qushlar, hayvonlar, tabiat manzaralari ko'rinishlarini yasashni ishlanma qiladilar.

Qishloq xo'jalik tajriba soatlarida turli ko'katlar: kashnich, shivit, rayhon, piyoz, sabzi, sholg'om mavsumiy har xil gul urug'larini sepish, mevali manzarali daraxtlar, atirgul ko'chatlarini ekish, payvand qilish yo'llarini o'rganadilar. Xullas, mehnat ta'limining qaysi bo'limiga qaramang unda boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat tufayli ijod qilishga yo'naltiradi. Muhimi mehnat ta'limida o'rganganlari boshqa fanlarga ham qo'l keladi. Mehnat darslarining amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilar o'yinchoq detallarni reja va zagatovka tayyorlashga kirishishdan oldin o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga ishni bajarishdagi o'z mehnat faoliyatini tahminan rejalashtirishni o'rgatish va ularni shunga odatlantirish lozim. Bu tadbir mehnat jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim aktivligini oshirishda, qurish-yasash texnikasiga doir ko'nikma va qobilyatlarini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mehnat darslari dasturga birinchi sinfdan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilarini tekis chizma elementlari bilan tanishtiradi.



Texnik g‘oyani chizma usulda ifodalashni o‘rgatish oddiy chizma va rasmlarni o‘qish, ularga qarab o‘yinchoq yasash mashg‘ulotlari kiritiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari berilgan mehnat shartlari va o‘lchamlariga qarab topshiriqlarini bajarishda ish yo‘llarini asta-sekin aniqroq va mustaqil amalga oshiriladigan bo‘ladilar.

Shuning uchun mehnat faoliyatining hamma bosqichlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari oldiga ijodiy harakterdagi vazifalar qo‘yish , ular bajarayotgan o‘yinchoq yanada chiroyli, mukammalroq qilib yasashga rag‘batlantirib borish zarur. Rejaga avallo tayyorlangan har xil o‘yinchoqlarni avaylash, madaniy xulq qoidalarini o‘rgatish darslarini kiritish, ota-onalar bilan kelishib, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mazkur mashg‘ulotlarga qo‘yilgan talablari albatta bajarilishiga erishishlari kerak. Darsda turli o‘yinchoqlar yasashni rejorashtirishda joyning iqlim sharoitini, jumladan, loydan qishloq xo‘jaligi poliz mahsulotlari, uy-ro‘zg‘or buyumlariga doir o‘yinchoqlar tayyorlashga mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tanlashni hisobga olish lozim.

Masalan, O‘zbekistonda loydan o‘yinchoqlar yasashga oid ishlarni ko‘zda tutish ma’qul, chunki bu vaqtida yer nam bo‘ladi. Yilning bu faslida, qishda bajariladigan o‘yinchoqlar uchun qayishpoya, g‘udda, yong‘oq po‘stlog‘i kabi xomashyo materiallarini yig‘ib qo‘yish va ulardan o‘z navbatida foydalanish mumkin.

Boshlang‘ich sinfdagi mehnat darsida amalga oshiriladigan har xil materiallardan turli buyum, o‘yinchoqlar yasash ishlarni (qirqish,bichish-tikish texnik modellar usulidagi o‘yinchoqlar yasash kabilar bilan qo‘sib olib boorish foydalidir. Rejaga yasli bog‘cha Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariiga turli o‘yinchoqlar yasab berish ham kiritiladi. Bu ishlar har xil yoshdagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida do‘stlikni mustahkamlaydi, katta yoshli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kichiklar haqida g‘amxo‘rlik qilishga har xil sovg‘alar, o‘yinchoqlar tayyorlashga) o‘rgatadi. Bundan tashqari, ularda mehnat ko‘nikmalarini mustahkamlanishiga yordam beradi. Mehnat ta’limidan sinfdan tashqari ishlarni rejorashtirishda ota-



onaning yordamidan foydalanishni ham hisobga olish lozim, ular ayniqsa har xil o‘yinchoqlar; model va naqshlar tayyorlaydigan to‘garaklarning ishlaridan xabardor bo‘ladilar.³

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘quvchilarga mehnatga, mehnatkash insonlarga chuqur hurmat hissini uyg‘otish uchun mehnat ta’limi darslarining va sinfdan, mакtabdan tashqari olib boriladigan turli xil buyumlar, o‘yinchoqlarni karton, rangli qog‘oz, preslangan karton faner, yog‘och faner, taxta, sim, sun’iy materiallar, har xil rangdagi klyonkalar, plastmassa, penoplast, tunuka, turli diametrдagi ingichka, yog‘on simlar, oyna bo‘laklari, turli gazlama qiyqimlari, palto yoqalaridan, paxtalar ishtirokida turli o‘yinchoqlar yasash kabi ishlarni olib borish nihoyatda ijobiy samara beradi. Bu sohada olib borgan tajribalarimizning natijalari o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatdi.

Buni yanada rivojlantirish uchun:

- o‘quvchilarni mehnat ta’limi darslaridan mamlakatimizda moddiy ishlab chiqarishning mohiyati, uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari bilan ishlab chiqarishda foydalanilayotgan har xil asbob va mashina mehanizmlarining yaratilish va takomillashtirib borish tarixi bilan unga salmoqli hissa qo‘shayotgan atoqli olimlar va ishtirokchilarning hayotiy va mehnatga oid video kasetalarda namoyish qilish;

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mehnat darslari orqali turli narsa va o‘yinchoqlar tayyorlashga o‘rgatib, ularni ijtimoiy foydali mehnatga, bevosita maktablararo mehnat ustaxonalaridagi o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan har xil ishlarni ko‘rsatish yo‘llari bilan ularni mehnatga jalg qilish;

³ Bulyank E.K. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘yinchoqlar yasashni o‘rgatish” T., O‘qituvchi. 1990-y.



- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga mehnat ta’limining ilmiy asoslarini bosqichma bosqich asta-sekinlik bilan ular ongida shakllantirish;

Mehnat tarbiyasi masalalarini hal qilishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini va oilani kuch-g‘ayratini biriktirish, ularning o‘zaro hamjihatliklari va doimiy axloqlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining turli o‘ymnchoqlar yasashga jalb qilishning shartlaridan biridir va o‘quvchilar bilan ota-onalarning hamkorlik, hamjihatliklari qanchalik mustahkam bo‘lsa, ularning birlikdagi harakatlarini intilishlari to‘g‘ri tashkil qilinsa, bolaning sinf o‘quvqchilarining qiziqishlari shunchalik mustahkam, shunchalik chuqur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADANIYOTLAR

1. Azizzxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O‘quv qodlanma). - T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 y. - 160 b. 64-67 betlar.
2. Antonov A.F. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mehnat ta’limini boshqarish” T., 1993-y.
3. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchi muallif. SH. Karimov va boshqalar. Toshkent “Sharq” 1999-y.
4. Bulyank E.K. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘yinchoqlar yasashni o‘rgatish” T., O‘qituvchi. 1990-y.
5. Bulyank E.K. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘yinchoqlarni o‘rgating” T., 1994-y.
6. Guxosova A. “Mehnat darslaridan amaliy ishlar” T., 1998-y.
7. Guxosova A “Ruxodelil v nachalnix klassov” Moskva. 1986-y.
8. Hasanov S. “O‘rta Osiyo mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida”. T. 1996- y.
9. Mavlonova R. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotidagi mehnat tarbiyasi” T. O‘qituvchi 1999-y.